

**“KELISHILDI”**  
Nizomiy nomidagi Toshkent  
davlat pedagogika  
universiteti rektori v.v.b.



X.Kadirov  
2024-yil “11” yanvar

**“TASDIQLAYMAN”**  
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi  
Bilim va malakalarni baholash  
agentligi direktori



M.Karimov  
2024-yil “12” yanvar

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi umumiy o’rta ta’lim  
muassasalarida faoliyat yuritayotgan malakali pedagog kadrlarni oylik ustamalar  
to’lash orqali moddiy rag’batlantirish maqsadida saralash test sinovini o’tkazish  
uchun davlat va huquq asoslari fanidan test topshiriqlari

### **SPETSIFIKATSIYASI**

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi  
Ilmiy-metodik kengashning  
2024 yil 10-yanvardagi navbatdan tashqari 1-son  
yig‘ilishi qarori bilan ma’qullangan

**Toshkent – 2024**

**Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan malakali pedagog kadrlarni oylik ustamalar to'lash orqali moddiy rag'batlantirish maqsadida saralash test sinovini o'tkazish uchun davlat va huquq asoslari fanidan test topshiriqlari spetsifikatsiyasi**

Mazkur spetsifikatsiyaga amaldagi o'quv me'yoriy hujjatlarga muvofiq qo'shimcha, o'zgartirish va tuzatishlar kiritilishi mumkin.

**1. Test topshiriqlarining qo'llanishi**

Spetsifikatsiya Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan malakali pedagog kadrlarni davlat va huquq asoslari fanidan oylik ustamalar to'lash orqali moddiy rag'batlantirish maqsadida saralash test sinovlarini o'tkazish uchun o'qituvchilarning bilim darajasini aniqlab berishga mo'ljallangan.

**2. Test sinovi topshiriqlarining mazmunini belgilovchi me'yoriy hujjatlar**

– Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlan darsliklar, o'quv qo'llanmalari va oliy ta'lim muassasalari tomonidan tasdiqlangan fan dasturi;

– Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan umumiy o'rta ta'lim uchun davlat va huquq asoslari fanidan takomillashtirilgan o'quv dasturi, darsliklar va o'quv qo'llanmalar;

– O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi vaziri jamg'armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'ridsida" 2022-yil 2-avgustdag'i 425-son qarori;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qarori.

**3. Davlat va huquq asoslari fanidan shakllantiriladigan test variantining tar-kibi**

Davlat va huquq asoslari fanidan mutaxassislik fani sifatida shakllantiriladigan test varianti talabgorlarning nazariy bilimlarni o'zlashtirish darjasini bilan birga mantiqiy fikrashi, masala va topshiriqlarni bajara olish qobiliyati va fanga oid kompetensiyalarni tekshirishga yo'naltirilgan test topshiriqlaridan tarkib topadi. Test topshiriqlarining soni hamda baholash mezonlari tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishiladi.

#### 4. Test topshiriqlari yordamida tekshiriladigan fan mazmuni tarkibi

Kodi	Fan mazmuni tarkibi
	1. O'zbekiston davlati va huquqi asoslari
1.1	<b>Shaxs, jamiyat va davlat.</b> Shaxs. Jamiyat. Davlat. Davlatning funksiyalari. Davlatning boshqaruv shakli. Davlatning tuzilish shakli. Siyosiy tartibot (rejim). Davlat organlari. Davlat mexanizmi.
1.2	<b>Fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat.</b> Fuqarolik jamiyati. Huquqiy davlat.
1.3	<b>O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvining tashkil etilishi.</b> O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekiston Respublikasida qonun chiqaruvchi organ. O'zbekiston Respublikasining ijro etuvchi hokimiyat organlari. O'zbekiston Respublikasi sud tizimi.
1.4	<b>Axloq va huquq. Huquqiy munosabatlar.</b> Axloq va huquq. Huquq normalari. Huquq sohalari. Huquqiy munosabatlar O'zbekiston Respublikasining qonun manbalari. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat.
1.5	<b>Huquqbazarlik va yuridik javobgarlik.</b> Huquqbazarlik. Yuridik javobgarlik. Huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlari. Adliya vazirligi. Advokatura va notarial idoralar. Qurolli Kuchlar va yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.
1.6	<b>Voyaga yetmaganlar huquqlari va burchlari.</b> Fuqarolik qonunchiligidagi voyaga yetmaganlarning huquqlari. Jinoyat qonunchiligidagi voyaga yetmaganlarning huquq va majburiyatlar. Oila qonunchiligidagi voyaga yetmaganlarning huquq va majburiyatlar. Mehnat qonunchiligidagi voyaga yetmaganlarning huquqlari.
2. Konstitutsiyaviy huquq asoslari	
2.1	<b>Konstitutsiya – davlatning asosiy qonuni.</b> Konstitutsiyaviy huquq. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mundarijasи va tavsifi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy prinsiplari. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati.
2.2	<b>Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari.</b> Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari va erkinliklari. Inson va fuqarolarning shaxsiy huquqlari va erkinliklari. Inson va fuqaroning iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari. Siyosiy huquqlar. O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi. Inson huquqi va erkinlari kafolatlari. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining konstitutsiyaviy burchlari.
2.3	<b>Jamiyat va shaxs.</b> Jamoatchilik birlashmalari va ommaviy axborot vositalari faoliyati. Siyosiy partiyalar faoliyati. Oila jamiyatning buguni va kelajagi negizidir. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi.
2.4	<b>Davlat boshqaruv organlari.</b> O'zbekiston Respublikasida davlat hokimyatining tashkil etilishi. Oliy Majlis va uning vakolatlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekiston Respublikasining ijro etuvchi hokimiyat organlari. Joylardagi mahalliy davlat hokimiyati organlari.

	lari. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari. O‘zbekiston Respublikasining sud tizimi. O‘zbekiston Respublikasi sud organlari ish faoliyatini tashkil etish.
2.5	<b>Konstitutsiya - mamlakatda demokratiyani rivojlantirish kafolati.</b> O‘zbekiston Respublikasidagi saylov tizimi. O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlari. O‘zbekiston Respublikasida moliya va kredit.
<b>3. Huquq sohalari</b>	
3.1	<b>O‘zbekiston respublikasining xalqaro huquq subekti.</b> Huquq – shaxs va davlat munosabatlarining mustahkam asosi..Xalqaro huquq Birlashgan Millatlar Tashkilotining maqsad va vazifasi.O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi Inson huquq va erkinliklarini himoya qilish mexanizmi.
3.2	<b>Konstitutsiyaviy huquq asoslari</b> Davlatda qonunning ustuviorligi. O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumining asoslari. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumining asosi sifatida insonparvarlik tamoyili.
3.3	<b>Ma’muriy huquq asoslari.</b> O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy huquq. Konstitutsiyaviy asoslari. Ma’muriy huquqbazarlik va ma’muriy javobgarlik. Ma’muriy jazo va uning turlari.
3.4	<b>Fuqarolik huquqi asoslari.</b> <b>O‘zbekiston Respublikasida</b> Fuqarolik huquqi Bitimlar va vakillik. Mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlar. Fuqarolik-huquqiy shartnomalar shartlari. Iste’molchilar huquqlari va majburiyatlari. Ishlab chiqaruvchi tomonidan tovar sifatiga beriladigan kafolat. Intellektual mulk huquqi. Fuqarolik ishining sudda ko‘rib chiqilishi bosqichlari.
3.5	<b>Mehnat huquqi asoslari.</b> Mehnatga oid munosabatlar. Ishga qabul qilish. Mehnatni muhofaza qilish. Ishga qabul qilinayotganda hujjatlarni rasmiylashtirish. Mehnatga haq to‘lash va intizom. Ish vaqt va dam olish vaqt. Mehnat shartnomasini o‘zgartirish va bekor qilish. Mehnat nizolari va ularni hal etish tartibi.
3.6	<b>Oila huquqi.</b> Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini. Nikoh tuzish tartibi va shartlari. Er-xotinning shaxsiy huquq va majburiyatlari. Er va xotinning mulkiy huquq va majburiyatlari. Er va xotin mol-mulkinining shartnomaviy tartibi.
3.7	<b>Jinoyat huquqi.</b> Jinoyat huquqining maqsadi, vazifasi va tamoyillari. Jinoyat belgilari. Jinoiy javobgarlik va jazo tizimi. Fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklariga qarshi jinoyatlar. Oilaga, yoshlarga va axloqqa qarshi jinoyatlar. Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar. Hokimiyat boshqaruv tartibiga qarshi jinoyatlar. Jamoat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar. Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar.
3.8	<b>Moliya huquqi.</b> O‘zbekistonda moliya-kredit tizimi. Moliyaviy-huquqiy munosabatlar. O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti va

	byudjet huquqi. Davlat daromadlarini huquqiy tartibga solish. Davlat kreditining huquqiy asoslari.
3.9	<b>Ekologik huquq.</b> Tabiatni muhofaza qilishning huquqiy asoslari. Ekologik huquqbazarlik uchun javobgarlik.
3.10	<b>Protsessual huquq.</b> Jinoyat-protsessual qonun hujjatlari. Jinoyat protsessi ishtirokchilar. Jinoyat protsessual qonunchilikda aniqlanishi lozim bo'lgan holatlar.
4.1	<p style="text-align: center;"><b>Pedagogika</b></p> <p>O'zbekiston Respublikasida ta'lrim tizimini rivojlantirishning konseptual asoslari. O'zbekiston Respublikasi ta'lrim tizimi.. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lrim to'g'risida"gi Qonuni (2020-yil 23-sentyabr). 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022-2026 yillarda maktab ta'lmini rivojlantirish bo'yicha Milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-son Farmoni.</p> <p>Pedagogikaning umumiy asoslari. O'qitish nazariyasi. Pedagogika fan sifatida. Yaxlit pedagogik jarayon. Didaktika – pedagogikaning tarkibiy qismi sifatida. Ta'lrim mazmuni. Ta'lrimni tashkil etish shakl, metod va vositalari. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tashxis etish. Xalqaro baholash dasturlari (PISA, PIRLS, TIMSS, ICILS).</p> <p>Tarbiya nazariyasi. Tarbiya qonuniyatları va tamoyillari. Tarbiyaning umumiy metodlari. O'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish. Tarbiya turlari (aqliy, iqtisodiy, ekologik, fuqarolik, huquqiy, mafkuraviy, ma'naviy-axloqiy, mehnat, jismoniy, estetik, oilaviy).</p> <p>"4K" TIZIMI. Tanqidiy (kritik) fikrlash. Kreativ kompetentlik. Kommunikativ kompetentlik. Kollaboratsiya (komandada ishlash).</p> <p>Pedagogik mahorat. Pedagogik qobiliyatlar. O'qituvchi faoliyatida muloqot madaniyati. Pedagogik takt va etika. Pedagogik texnika. Nutq madaniyati va texnikasi. O'qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish. Mustaqil ta'lim va o'z-o'zini tarbiyalash.</p> <p>Pedagogik texnologiya. Texnologiya tushunchasi va ularning tasnifi. Umumpedagogik texnologiyalar. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi. Kreativ fikrlashni shakllantirish metodlari.</p>

## 5. Davlar va huquq asoslari ( Huquqiy fanlar) faniga oid kognitiv ko'nikma darajasi

1.	quyi kognitiv dara-ja	Konstitutsiya, davlat, huquq, burch, majburiyat, fuqaro, inson, qonun, axloq, odob kabi huquqiy tushunchalarini bilish, normativ-huquqiy hujjatlarini mohiyatini va belgilarini tushuntirish
2.	yuqori kognitiv	Egallangan bilim asosida tanish va notanish sharoitda berilgan topshiriqni analiz va sintez qilish (huquqiy voqeа va

	daraja	hodisalarni idrok qilish va to‘g‘ri xulosalar chiqarish, voqealar izchilligini bilish, farqlay olish, grafik va diagrammalar bilan ishlay olish).
--	--------	---

## 6. Davlat va huquq asoslari ( Huquqiy fanlar) fanidan test topshiriqlari yordamida tekshiriladigan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar

Davlat va huquq asoslari faniga oid test varianti talabgorlarning nazariy bilimlarni o‘zlashtirish darajasini, ularning mantiqiy fikrlashini baholaydigan test topshiriqlaridan iborat. Mazkur test topshiriqlarini shakllantirishda amaldagi davlat ta’lim standartlari va Davlat va huquq asoslari fan faniga oid fan dasturlarida o‘zlashtirilishi belgilab ko‘rsatilgan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar asos sifatida qaraldi.

Fan	Tekshiriladigan bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar	Kodi
Davlat va huquq asoslari	<p>Huquqiy ongga ega bo‘lish kompetensiyasi</p> <p>konstitutsiya, davlat, huquq, burch, majburiyat, fuqaro, inson, qonun, axloq, odob kabi huquqiy tushunchalarning mazmunini biladi;</p> <p>axloq va huquq qoidalarini biladi;</p> <p>bola huquqlari, voyaga yetmaganlik, mehnat huquqi, oila huquqi, fuqarolik huquqi kabi tushunchalarning mazmunini biladi;</p> <p>jamiyat, davlat va huquqning paydo bo‘lishi, huquqbazarlik va ularning belgilari haqida ma’lumot beradi;</p> <p>inson va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va burchlarini biladi;</p> <p>hokimiyat va uning bo‘linish prinsiplari, belgilari, fuqarolik jamiyat, huquqiy davlat va uning asoslarini tushuntira oladi;</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik, mehnat, ma’muriy va jinoyat qonunchiligidagi belgilangan voyaga yetmaganlarga oid huquqlarni va cheklovlanri biladi;</p> <p>O‘zbekiston Respublikasining protsessual qonunchiligidagi belgilangan voyaga yetmaganlarning huquqlarini biladi</p>	1.1
Huquqiy madaniyatli bo‘lish	<p>O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida belgilangan huquqlarini qo‘llay olish;</p> <p>huquqiy ko‘nikma hosil qilish;</p> <p>huquqiy masalalar yuzasidan qonunchilikda belgilangan tartibda kichik maishiy bitimlarni tuza olish;</p> <p>huquqiy voqealar va hodisalarga munosabat bildirishda huquqiy bilimni qo‘llay olish;</p>	2.2

	huquqiy voqeа va hodisalarga oid to‘g‘ri xulosa chiqara оlish	
--	---	--

#### **6. Ajratilgan vaqt (javoblar varaqasini to‘ldirish bilan birga):**

- 40 ta test topshirig‘i uchun 100 daqiqa.

#### **7. Test topshiruvchilar uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati.**

1. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: SANO-STANDART, 2017.
2. Xodjayev B.X., Choriyev A., Saliyeva Z.T. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. Darslik. – T.: IQTISODIYOT DUNYOSI, 2018.
3. Ro’ziyeva D.I., Tolipov O’.Q. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: INNOVATSIYA-ZIYO, 2019.
4. Pazilov A., Q.Qosnazarov., Q.Seytmuratov., Z.Kurbaniyazova. Pedagogika teoriyasi. – T.: “Noshir”, 2018.
5. Pedagogika. // M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. Darslik. – T.: O’zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
6. Xalikov A.A. Pedagogik mahorat. Darslik. – Toshkent, Iqtisod moliya, 2012.
7. Omonov N.T., Madyarova S.A. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Iqtisod–moliya, 2009.
8. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2006.

#### **Internet saytlari:**

1. [lex.uz](http://lex.uz)
2. [www.natlib.uz](http://www.natlib.uz)